

**MODDANING AGREGAT HOLATI. MODDANING ZICHLIGI. SUYUQLIK VA GAZLAR  
BOSIMI**

**Urinov Shavkatjon Abduqayumovich**

*Farg'ona "Temurbeklar maktabi"*

*harbiy litseyi oliv toifali fizika fani o'qituvchisi*

**Annotatsoya:** *Maqolada agregat holati moddaning zichligini va suyuqlik va gazlar bosimini keng kamrovda yoritib beriladi*

**Kalit so'zlar:** *agregat xolat, plazma, zichlik, barometr, manometr, atmosfera, gidravlik, paskal , bar.*

**Moddaning agregat xolati**

Bizga moddaning uchta agregat xolati yoki fazasi ma'lum : qattiq, suyuq va gaz xolat. Qattiq jism xajmi va shaklini doimiy saqlaydi. Unga katta kuch qo'yib bo'lsa ham xajmi va shaklini o'zgartirish qiyin. Suyuqliklar siljish kuchlanishiga bardosh bera olmaydi va aniq shaklga ega emas. Ular idish shaklini oson egallaydi. Biroq ularni qattiq jismlar kabi siqish qiyin va ularning xajmini katta kuch ta'sirida o'zgartirish mumkin. Gazlar ma'lum xajmga ham, shaklga ham ega emaslar. Ular solingan idishning xajmini to'liq egallaydilar. Ma'lum shaklga ega bo'lgan suyuqlik va gazlar oquvchanlikka ega. Bu umumiy xossa ularni birlashtiradi. Fazalar orasida aniq chegarani o'tkazish unchalik oson emas. Masalan, sariq yog' nimaga kiradi? Bularidan tashqari yana to'rtinchi plazma xolati ham mavjud. Plazma juda yuqori temperaturalarda, atomlar o'zlarining elektronlarining bir qismini yo'qotib ionga aylanganida mavjud bo'la oladi Ayrim olimlar kalloid eritmalar alohida agregat xolatga ajratilishi kerak deb xisoblaydilar.

**Modda zichligi**

Ayrim xollarda temir yog'ochdan og'irroq deyiladi. Temirning zichligi yog'ochning zichligidan katta deyish to'g'ri bo'ladi. Modda zichligi birlik massaning xajmga nisbati kabi aniqlanadi:

$$\rho = \frac{m}{V}, \quad (1)$$

bu yerda  $m$ - moddaning ayrim miqdorining massasi,  $V$ -uning xajmi. Zichlik moddaning xarakterli xossasidir. Ma'lum moddadon yasalgan buyumlar turli o'lchamda va turli massada bo'lishi mumkin, biroq ularning zichligi doimo bir xil bo'ladi. SI sistemasida zichlik birligi  $\text{kg}/\text{m}^3$  bo'lib, ayrim xollarni uni  $\text{g}/\text{sm}^3$  larda ko'rsatadilar. Zichlikni  $\text{g}/\text{sm}^3$  dan XBS ga o'tkazish uchun uni 1000 ga ko'paytirish kerak, chunki  $1 \text{ kg}/\text{m}^3 = (1000 \text{ g})/(100 \text{ sm})^3 = 10^{-3} \text{ g}/\text{sm}^3$ . SHunday alyumininiyning zichligi  $\rho = 2,70 \text{ g}/\text{sm}^3 = 2700 \text{ kg}/\text{m}^3$  ga teng. Qator moddalar zichliklari jadvalda keltirilgan. Zichlik temperatura va bosimga bog'liq (qattiq jism va suyuqliklarda bu bog'liqlik sezilarsiz). SHuning uchun quyidagi jadvalda zichlik o'lchangan sharoit

ko'rsatilgan. Moddaning nisbiy zichligi  $4,0 \text{ }^{\circ}\text{S}$  temperaturada modda zichligining suv zichligiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu kattalik o'lchamsiz kattalikdir. Suv zichligi  $1,00 \text{ g/sm}^3 = 1,00 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$  ga tengligidan ixtiyoriy moddaning nisbiy zichligi son qiyamat jihatidan uning  $\text{g/sm}^3$  dagi zichligiga teng yoki  $\text{kg/m}^3$  da ifodalangan zichligidan  $10^3$  marta kichikdir. Masalan qo'rg'oshinning nisbiy zichligi 11,3 va spirtniki 0.79 ga teng.

**TABLE 10-1**  
**Densities of Substances<sup>2</sup>**

Substance	Density, $\rho (\text{kg/m}^3)$
<i>Solids</i>	
Aluminum	$2.70 \times 10^3$
Iron and steel	$7.8 \times 10^3$
Copper	$8.9 \times 10^3$
Lead	$11.3 \times 10^3$
Gold	$19.3 \times 10^3$
Concrete	$2.3 \times 10^3$
Granite	$2.7 \times 10^3$
Wood (typical)	$0.3-0.9 \times 10^3$
Glass, common	$2.4-2.8 \times 10^3$
Ice ( $\text{H}_2\text{O}$ )	$0.917 \times 10^3$
Bone	$1.7-2.0 \times 10^3$
<i>Liquids</i>	
Water ( $4^{\circ}\text{C}$ )	$1.000 \times 10^3$
Sea water	$1.025 \times 10^3$
Blood, plasma	$1.03 \times 10^3$
Blood, whole	$1.05 \times 10^3$
Mercury	$13.6 \times 10^3$
Alcohol, ethyl	$0.79 \times 10^3$
Gasoline	$0.7-0.8 \times 10^3$
<i>Gases</i>	
Air	1.29
Helium	0.179
Carbon dioxide	1.98
Water (steam) ( $100^{\circ}\text{C}$ )	0.598

**Вещество**      **Плотность  $\rho$ ,  
кг/м<sup>3</sup>**

<b>Твердые тела</b>	
Алюминий	$2,70 \cdot 10^3$
Железо и сталь	$7,8 \cdot 10^3$
Медь	$8,9 \cdot 10^3$
Свинец	$11,3 \cdot 10^3$
Золото	$19,3 \cdot 10^3$
Бетон	$2,3 \cdot 10^3$
Гранит	$2,7 \cdot 10^3$
Дерево (обычное оконное)	$(0,3-0,9) \cdot 10^3$
Стекло	$(2,4-2,8) \cdot 10^3$
Лед	$0,917 \cdot 10^3$
Кость животного	$(1,7-2,0) \cdot 10^3$
<b>Жидкости</b>	
Вода ( $4^{\circ}\text{C}$ )	$1,00 \cdot 10^3$
Плазма крови	$1,03 \cdot 10^3$
Кровь	$1,05 \cdot 10^3$
Морская вода	$1,025 \cdot 10^3$
Ртуть	$13,6 \cdot 10^3$
Спирт (этиловый)	$0,79 \cdot 10^3$
Бензин	$0,68 \cdot 10^3$
<b>Газы</b>	
Воздух	1,29
Гелий	0,179
Углекислый газ	1,98
Водяной пар ( $100^{\circ}\text{C}$ )	0,598

### Suyuqlik va gazlar bosimi

Bosim- birlik yuzadagi sirtga perpendikulyar yo'naliishda ta'sir etuvchi kuchdir:




$$\mathbf{P} = \mathbf{F}/\mathbf{A} \quad (1)$$

bu yerda A- sirt yuzasi. XBS sistemasida bosim  $\text{N/m}^2$  da o'lchanadi va u paskal (Pa) deb ataladi.  $1 \text{ Pa} = 1 \text{ N/m}^2$ . Soddalik uchun biz  $\text{N/m}^2$  ni qo'llaymiz. Bosim gohida dinG<sup>2</sup>/sm<sup>2</sup> va kgk/sm<sup>2</sup> ( $1 \text{ kgk/sm}^2 = 9,8 \text{ N/sm}^2 = 9,8 \times 10^4 \text{ N/m}^2$ ) o'lchanadi.

Misol tariqasida 60 kg massali odamning yerga ko'rsatadigan bosimini ko'rib chiqamiz. Oyog'i 500 sm<sup>2</sup> ni egallagan bo'lsin. (1) formulaga ko'ra  $F/A = q mg/A = (60 \text{ kg}) (9,8 \text{ m/s}^2)/(0,050 \text{ m}^2) = 12 \cdot 10^3 \text{ N/m}^2$ . Agar odam bitta oyoqda turgan bo'lsa, kuch avvalgichaligicha qolib, yuza esa ikki marta kamayar edi, bunda bosim ikki marta oshadi, ya'ni  $24 \times 10^3 \text{ N/m}^2$  ga teng bo'ladi.

Tajriba yo'li bilan suyuqlik va gazlar barcha yo'naliishlar bo'yicha bosim xosil qilishi aniqlangan. Bu suvda tanalariga har tomonlama bosimning ta'sirini sezuvchi

suzuvchi va sho'ng'uvchilar uchun yaxshi tanish. Tinch turgan suyuqlik (yoki gaz) ichidagi ixtiyoriy nuqtada bosim barcha yo'nalishlarda bir xildir. Buni 1-rasm orqali oson tushunib olish mumkin. Buning uchun suyuqlik ichida shunchalik kichkina kubni ajratibolamizki, unga ta'sir etuvchi og'irlilik kuchi xisobga olinmasin. Bu kubning bir qirrasiga ta'sir etuchi bosim qarama-qarshi qirrasiga ta'sir etuvchi bosimga teng bo'lishi kerak. Agar bunday bo'lmasa, kubga ta'sir etuvchi natijaviy kuch nolga teng bo'lmas edi va kub ikkita qirradan kelayotgan bosim tenglashguniga qadar harakatlanar edi. Biroq suyuqlik qo'zg'almas va bunda bosimlar bir-biriga teng.

			
1-rasm. Suyuqlik (gaz) ichidagi bosim barcha yo'nalishlarda bir xildir, aks xolda suyuqlik harakatlana boshlar edi.	2-rasm. Qo'zg'almas suyuqlik qattiq jism sirtiga, sirtga perpendicular tarzda ta'sir etayotgan kuch, ya`ni, $F_{  } = 0$	3-rasm. h chuqurlik-dagi bosimni xisob-lash.	4-rasm. Suyuqlikda y balandlikdagi bosim P ni topish;suyuqlik xajmidagi yassi elementga ta'sir etuvchi kuch.

Qo'zg'almas suyuqliklar (gazlar) ning yana bir muhim xossasi bosim yuzaga keltirgan kuchning doimo shu muhit tegib turadigan sirtga perpendicular bo'lqidir. Agar kuch sirtga parallel tashkil etuvchisiga ega bo'lsa (2-rasm), u xolda N yutonning uchinchi qonuniga ko'ra sirtning reaktsiya kuchi ham parallel tashkil etuvchisiga ega bo'lib, uning ta'sirida suyuqlik oqa boshlashi kerak edi. Bu esa dastlabki qo'yilgan suyuqlikning tinch turganligi haqidagi shartga qarshi bo'lar edi. Doimiy zichlikli suyuqlikda chuqurlik oshishi bilan bosim qanday o'zgarishini miqdoriy xisoblaymiz. Sirdan h chuqurlikdagi nuqtani ko'rib chiqamiz(3-rasm). h chuqurlikdagi bosim tanlangan nuqta ostidagi suyuqlik ustuni og'irligiga asoslangan. SHunday qilib, A yuzaga ta'sir etuvchi kuch  $F = \rho Ahg$ , bu yerda  $Ah$  – ustun xajmi,  $\rho$  – suyuqlik zichligi,  $g$  – erkin tushish tezlanishi. SHunday qilib biz

$$P = F/A = \rho Ahg/A,$$

$$P = \rho gh \quad [\text{suyuqlik yoki gaz}] \quad (2)$$

ga ega bo'lamiz. Bundan bosim suyuqlik zichligi va chuqurlikka to'g'ri proportsional ekanligi ko'rinish turibdi. Xususan, bir jinsli suyuqlikda bir xil chuqurlikda

bosimlar bir xil bo'ladi. (2) formula suyuqlikning h chuqurlikdagi va suyuqlikning o'ziga asoslangan bosimini aniqlaydi. Agar suyuqlik sirtiga qo'shimcha bosim, masalan, atmosfera bosimi ta`sir etsa nima yuz beradi? Suyuqlik yoki gaz zichligi doimiy bo'lmasa nima bo'ladi? Gazlarning siqiluvchanligi katta bo'lib uning zichligi chuqurlikka qarab o'zgarib turadi. Suyuqliklar zichligining o'zgarishini ko'pincha xisobga olmasa ham ular ham siqiluvchandir. SHuning uchun suyuqlik va gazlarda chuqurlik oshishi bilan bosimning o'zgarishini aniqlash mumkin bo'lgan umumiy xolatni ko'rib chiqamiz. Ixtiyoriy suyuq muhitni olib, unda qandaydir sanoq nuqta ustida y balandlikdagi bosimni aniqlaymiz. Suyuqlik ichida u sathda suyuqlik xajmining uncha katta bo'lмаган yuzasi A , cheksiz kichik qalinlik dy dagi yassi parallel ko'rinishli plastinani ko'rib chiqamiz. elementini ko'rib chiqamiz(4-rasm). Elementning pastki sirtiga ta`sir etuvchi pastdan yo'nalgan bosim (n balandlikda) R ga teng bo'lsin. U xolda eementning yuqorigi sirtiga ta`sir etuvchi pastga yo'nalgan bosim (y + dy balandlikda) ni P + dP deb belgilashimiz mumkin. SHunday qilib, suyuqlik xajmining tanlangan elementini yuqoriga RA va pastga (R Q dP) A ga teng bo'lgan kuchlar siqadi. Bundan tashqari unga vertikal yo'nalishda og'irlilik kuchi ta`sir etadi:

$$dw = (dm)g = \rho g dV = \rho g A dy,$$

bu yerda  $\rho$ -suyuqlikning u sathdagi zichligi. Suyuqlik tinch turganligidan, suyuqlik xajmi elementi muvozanatda bo'ladi, demak, natijaviy kuch nolga teng. U xolda

$$PA - (P + dP)A - \rho g Ady = 0$$

bo'lib, buni sodda ko'rinishda

$$dP/dy = -\rho g \quad (3)$$

deb yozish mumkin. Bu munosabat suyuqlik yoki gaz ichida balandlik bo'yicha bosimning o'zgarishini ifoda etadi. Minus ishora balandlik oshishi bilan bosimning kamayishini yoki chuqurlik oshishi bilan bosimning oshishini bildiradi.

Agar suyuqlik yoki gaz ichida  $y_1$  va  $y_2$  balandliklarda mos xolda bosimlar  $p_1$  va  $p_2$  bo'lsa, u xolda (3) tenglamani quyidagicha integrallash mumkin:

$$\begin{aligned} \int_{P_1}^{P_2} dP &= - \int_{y_1}^{y_2} \rho g dy, \\ P_2 - P_1 &= - \int_{y_1}^{y_2} \rho g dy. \end{aligned} \quad (4)$$

Bu umumiy munosabatni endi boshqa ikkita xususiy xollarga qo'llaymiz.

- 1) Doimiy zichlikli suyuqlik (yoki gazlar) bosimi
- 2) yer atmosferasidagi bosimlar variatsiyasi

Zichlik o'zgarishi xisobga olinmasa ham bo'ladigan suyuqlik va gazlar uchun  $P = \text{const}$  va (4) integralni topish qiyin bo'lmaydi:

$$P_2 - P_1 = -\rho g (y_2 - y_1) \quad (5,a)$$

Ko'pincha ochiq idishli suyuqlik (ko'l, basseyn, dengiz-erkin sirtga ega bo'lib, masofani o'lchash qulaydir) bilan ishlashimizga to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda 4 rasmdagi  $h = y_2 - y_1$  kattalikni suyuqlikdagi chuqurlik deb ataymiz. Agar  $y_2 - y_1$  suyuqlikning yuqori sirti sathi koordinatasi bo'lsa,  $p_2$  atmosfera bosimi  $p_0$  ga teng bo'ladi. Bunda (5,a) ga muvofiq suyuqlikning  $h$  chuqurligidagi  $P (= P_1)$  bosim:

$$P = P_0 + \rho gh \quad (5, b)$$

ga teng bo'ladi. Bu munosabat suyuqlik ichidagi bosim uchun berilgan (2) formulaga mos tushib, u yana suyuqlik ustidagi atmosfera bosimi  $p_0$  ni ham xisobga oladi. Endi (3) va (4) formulalarni gazlarga qo'llaymiz. Gaz zichligi odatda juda kichik bo'ladi va shuning uchun turli sathlarda, agar  $y_2 - y_1$  unchalik katta bo'lmasa, bosimlar farqini xisobga olmasak ham bo'ladi. Haqiqatda, kundalik xayotimizda qo'llaniladigan gazli ballonlarda butun xajm bo'yicha bosimni bir xil deb xisoblash mumkin. Biroq, agar  $y_2 - y_1$  farq katta bo'lsa, bosimlar bir xil bo'lmaydi Bunga qiziq misol yer atmosferasi bo'lib, undagi bosim dengiz sathida  $1,013 * 10^5 \text{ N/m}^2$  atrofida bo'lib, balndlilik bo'yicha sekin asta kamayadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Qambarov F .F. Ionnaya implantasiya v metallic.M: Nauka I texnika, 1980-164 bet
2. Beliy A.V. Karpenko G. D. Mishkin N. K. Struktura I metodi sozdanoya iznosostoykix poverxnostnix slova. M: Nauka I texnika, 1991-175 bet
3. Beliy A.V.Kukareko V A Lobodaeva O V, Taran I I , Shix S. K . Ionno-luchevaya obrabotka metallov, splavov I keramicheskix materialov. M: Nauka I texnika, 1997-186 bet